

**BOLALAR ONKOLOGIYASI, GEMATOLOGIYASI VA
IMMUNOLOGIYASI ILMIIY-AMALIIY TIBBIYOT MARKAZI
HUZURIDAGI ILMIIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/07.06.2024.Tib.177.01 RAQAMLI ILMIIY KENGASH**

TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY RIVOJLANTIRISH MARKAZI

SHAMSIYEVA LORIDA ERKINOVNA

**ENDOMETRIY GIPERPLASTIK JARAYONLARNING DIFFERENTIAL
TASHXISIDA MULTIPARAMETRIK ULTRATOVUSH TEKSHIRUVI**

14.00.19 – Klinik radiologiya

**Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

УЎК: 618.14 - 002 - 079.4 - 073.43

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Shamsiyeva Lorida Erkinovna

Endometriy giperplastik jarayonlarning differentsial tashxisida
multiparametrik ultratovush tekshiruvi.....3

Шамсиева Лорида Эркиновна

Мультипараметрическое ультразвуковое исследование в
дифференциальной диагностике гиперпластических процессов
эндометрия29

Shamsieva Lorida Erkinovna

Multiparametric Ultrasound Examination in the Differential Diagnosis
of Endometrial Hyperplastic Processes58

Эълон қилинган ишлар рўйхати

Список опубликованных работ
List of published works.....65

**BOLALAR ONKOLOGIYASI, GEMATOLOGIYASI VA
IMMUNOLOGIYASI ILMiy-AMALIY TIBBIYOT MARKAZI
HUZURIDAGI ILMiy DARAJALAR BERUVCHI
DSc.04/07.06.2024.Tib.177.01 RAQAMLI ILMiy KENGASH**

TIBBIYOT XODIMLARINING KASBIY RIVOJLANTIRISH MARKAZI

SHAMSIYEVA LORIDA ERKINOVNA

**ENDOMETRIY GIPERPLASTIK JARAYONLARNING DIFFERENTIAL
TASHXISIDA MULTIPARAMETRIK ULTRATOVUSH TEKSHIRUVI**

14.00.19 – Klinik radiologiya

**Tibbiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida V2024.4.PhD/Tib5189 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi huzuridagi Tibbiyot xodimlarining malakasini oshirish markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (resume)) Ilmiy kengashning rasmiy veb-sahifasida (www.bgokim.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy raxbar

Mamadaliyeva Yashnar Mamasaliyevna
Tibbiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar

Xodjibekova Yulduz Maratovna
Tibbiyot fanlari doktori, professor

Zaxirova Nargiza Ne‘matovna
Tibbiyot fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Etakchi tashkilot

Buxoro davlat tibbiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazi huzuridagi DSc.04/07.06.2024.Tib.177.01 raqamli Ilmiy kengashining 2025 yil «___» _____ soat ____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100115, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Mirzo Arnasoy ko‘chasi, 17A-uy. Tel.: (+99871) 203-11-03, faks: (+99871) 203-11-03; e-mail: info@bgokim.uz).

Dissertatsiya bilan Bolalar onkologiyasi, gematologiyasi va immunologiyasi markazi Axborot resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100109, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Arnasoy ko‘chasi 17A-uy. Tel./faks: (+998 71) 203-11-03).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «___» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil “___” dagi _____ reestr bayonnomasi)

D.Sh. Polatova

Ilmiy darajalar beruvchi bo‘yicha Ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

G.B. Mamedova

Ilmiy darajalar beruvchi bo‘yicha Ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori

G.A. Yusupaliyeva

Ilmiy darajalar beruvchi bo‘yicha Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Yirik tadqiqot markazlarining ma'lumotlariga ko'ra «...endometriy gipoplaziyasining turli shakllari 40 yoshdan oshgan ayollar orasida, ayniqsa, perimenopauza va erta postmenopauza davrida 15% dan 40% gacha bo'lgan holatlarda uchraydi. Endometriy giperplastik jarayonlarining eng xavfli turi bu — endometriy saratoniga o'tuvchi atipik gipoplaziya hisoblanadi. Endometriy saratoni ayollar orasida onkoginekologik kasalliklar va o'lim ko'rsatkichlari tuzilmasida 4-o'rinni egallaydi...»¹. Endometriy patologiyalari ginekologik kasalliklar tarkibida katta ulushni tashkil etadi va ayollarni ginekologik shifoxonalarga yotqizishning eng keng tarqalgan sabablaridan biridir.

Jahon miqyosida ma'lumotlariga ko'ra, har yili dunyo bo'yicha endometriy raki bilan bog'liq 417 mingdan ortiq yangi holatlar qayd etiladi, shulardan qariyb 97 mingta holat o'lim bilan yakunlanadi. Postmenopauzadagi ayollarda uchraydigan endometriy gipoplastik jarayonlari (EGJ) bachadon ichki qobig'idan qon ketishining eng tez-tez uchraydigan sababi bo'lib, zamonaviy ginekologiyada jiddiy klinik-diagnostik muammo bo'lib qolmoqda.

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini izchil rivojlantirish sharoitida bachadon tanasi saratoni bilan kasallanish holatlari ortib bormoqda. Bu holat o'z navbatida zamonaviy diagnostika usullarini takomillashtirish hamda kasallikni erta aniqlash zaruratini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, mazkur patologiyani o'z vaqtida va to'g'ri differensial diagnostika qilish bemorlarni yuritish taktikasi va davolash strategiyasini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtai nazardan, "...ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida..."² qarorda belgilangan ustuvor yo'nalishlar mazkur muammoning dolzarbligini yana bir bor tasdiqlaydi. Qarorda nazarda tutilgan omillarni hisobga olish, davolashda individual yondashuvni ta'minlash, shuningdek, yuz-jag' sohasidagi erta va kech asoratlarni oldini olish bo'yicha profilaktik choralarni keng qo'llash — milliy tibbiyot sifatini oshirish va uni O'zbekiston sharoitida jahon andozalari darajasiga olib chiqish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 22 noyabrdagi PQ-402-sonli qarori "Ayollar orasida onkologik kasalliklarni nazorat qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida", O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 2023-yil 8 sentyabrdagi PQ-296-sonli qarori «Onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida» hamda

¹ Bray F. et al., 2018; Sung H. et al., 2021

² <https://www.lex.uz>. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 22.11.2024 yildagi PQ-402-son

mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi. O'tkazilgan ushbu ilmiy tadqiqot O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-iyundagi PQ-60-sonli "Tibbiy yordam, fan va ta'lim sohasini jadallik bilan rivojlantirishning keyingi bosqichlari to'g'risida"gi qarorida belgilangan respublikada ilm-fan va texnologiyalar rivojining ustuvor yo'nalishlariga to'liq mos keladi.

Tadqiqotning respublikada fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi³ Dunyoning bir qator ilmiy va oliy o'quv muassasalarida Statistik ma'lumotlarga ko'ra, bachadon tanasi saratoni (RTM) ayollar orasidagi onkologik kasalliklarning 8,2 foizini tashkil etadi. Har yili Markaziy Osiyo mintaqasida 20 mingdan ortiq yangi holatlar aniqlanadi va bu ko'rsatkich yildan-yilga ortib bormoqda. So'nggi yillarda mamlakatimizda ona va bola salomatligini muhofaza qilish, aholining reproduktiv salomatligini yanada mustahkamlash bo'yicha keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu yo'nalishdagi tadqiqotlar, xususan, University of Sydney (Avstraliya), King's College Hospital (Buyuk Britaniya), University of Barcelona (Ispaniya), New York University School of Medicine, Stanford University, Columbia University, University of Illinois (AQSH), University of Pavia, University of Pisa (Italiya), Paris Descartes University (Fransiya), University of Belgrade (Serbiya), I.M. Sechenov nomidagi Moskva tibbiyot akademiyasi (Rossiya) va Tibbiyot xodimlarining kasbiy rivojlantirish markazi (O'zbekiston)da amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda, Shuningdek, University of Barcelona (Ispaniya) va Stanford University (AQSH) ilmiy jamoalari tomonidan onkoginekologik kasalliklarda magnit-rezonans tomografiyasi, ultratovush tekshiruvlari hamda PET-KT kabi yuqori texnologik usullar asosida differensial diagnostika samaradorligi o'rganilgan. Tadqiqotlarda MRT yordamida endometriy qalinligining o'zgarishlari, qon tomir invaziyasi va limfa tugunlari holatini aniqlash orqali saratonning bosqichini aniq belgilash mumkinligi ko'rsatib o'tilgan.

Dunyo bo'ylab tizimli sharhlar ma'lumotlariga ko'ra, sun'iy intellekt texnologiyalarini tasviriy diagnostikada qo'llashdir. Columbia University, University of Illinois va Paris Descartes University kabi nufuzli ilmiy markazlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar natijalariga ko'ra, sun'iy intellekt algoritmlari MRT va ultratovush tasvirlari asosida endometrial o'zgarishlarni insondan ko'ra

tezroq va aniqroq aniqlash imkonini bermoqda. Bu esa klinik qarorlar qabul qilishda shifokorga katta yordam beradi. Shuningdek, Tibbiyot xodimlarining kasbiy rivojlantirish markazi va Respublika onkologiya markazi tomonidan olib borilayotgan izlanishlar ushbu tendensiyalarga mos ravishda rivojlanmoqda.

Mazkur xalqaro tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ayollar reproduktiv salomatligi va onkologik kasalliklarini erta aniqlash, davolash hamda ularning asoratlarini oldini olish bo'yicha ilg'or texnologiyalar va ilmiy yondashuvlar jadal rivojlanmoqda. Shu bilan birga, bu sohadagi ilg'or xorijiy tajribani o'rganish va milliy sog'liqni saqlash tizimiga moslashtirish, diagnostik jarayonlarning aniq, individual va yuqori samaradorlikka asoslangan bo'lishini ta'minlash muhim ahamiyat kasb etadi. Dissertatsiya doirasida olib borilayotgan izlanishlar aynan shu global ilmiy yo'nalishlar bilan uyg'un holda amalga oshirilmoqda hamda mamlakatimizda ayollar onkologik salomatligini yaxshilashga qaratilgan dolzarb ilmiy-amaliy vazifalarni hal qilishga xizmat qiladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Endometriy saratoni bilan kasallangan ayollarda yuqori o'lim darajasi, asosan, yomon sifatli o'smalarning biologik agressivligi, ularning qaytalanish chastotasi va tezkor metastaz berish qobiliyati bilan izohlanadi. Ilmiy ma'lumotlarga ko'ra, kasallik ko'pincha kech — III–IV bosqichlarda aniqlanadi, bu esa yaqin a'zolari infiltratsiya qilgan holatda bo'lib, og'ir klinik kechishga olib keladi. So'nggi yillarda diagnostika va davolash usullarining rivojlanishiga qaramay, endometriy patologiyasining qaytalanish darajasi hanuz yuqori bo'lib qolmoqda. Ayniqsa, giperplastik jarayonlarning o'z vaqtida aniqlanmasligi va to'liq davolanmasligi yomon sifatli o'sma shakllanishi xavfini oshiradi. Dunyo miqyosida bachadon tanasi saratoni bilan kasallanish dinamikasi o'sishda davom etmoqda.

Postmenopauza davrida qonli ajralmalar kuzatilgan ayollarda endometriy saratoni aniqlanish ehtimoli 4–5% atrofida baholanmoqda, biroq bu klinik simptomlar, shuningdek, endometriy giperplaziyasi, poliplar, atrofik o'zgarishlar va submukoz miomalarda ham uchrashi mumkin. Shuningdek, bu ayollar ko'pincha endokrin, yurak-qon tomir va ovqat hazm qilish tizimlari bo'yicha murakkab somatik fon bilan farqlanadi. Zamonaviy nurli diagnostika usullari, jumladan, magnit-rezonans tomografiya, ultratovushli tomografiya, dopplerometriya va 3D-angiografiya endometriy va uning qon tomir tarmog'ining gemodinamik xususiyatlarini invaziv bo'lmagan tarzda baholash imkonini beradi.

Ultratovush tekshiruv mavjudligi va arzonligi tufayli, dunyoning ko'plab mamlakatlarida endometriy kasalliklarini skrining qilishda keng qo'llaniladi. Shunga qaramay, endometriy saratonining aniqlanishida asosiy mezon bu gistologik tekshiruv hisoblanadi. Giperplastik jarayonlar yoki klinik xavf guruhidagi ayollarni oldindan saralashda gisteroskopik biopsiyaga muqobil ravishda zamonaviy elastografik usullar qo'llanilishi mumkin. Chet ellik mualliflar, xususan, N.V.

Vyatkina va I.G. Frolova tomonidan aytilishicha, shift to‘lqini elastografiyasi endometriy to‘qimalarining qattqlik ko‘rsatkichlarini obyektiv baholashda yuqori takrorlanuvchanlikka ega diagnostik vosita sifatida qaralmoqda.

Endometriy biopsiyasi ba‘zan soxta manfiy natijalar berishi mumkinligi sababli, postmenopauzaviy qon ketish yoki gormonal terapiya paytidagi tartibsiz qon ketishlarda transvaginal ultratovush tekshiruvi va sitologik tahlilni birgalikda qo‘llash samarali deb topilmoqda. Ilmiy manbalarda zamonaviy ultratovush tekshiruvi texnologiyalarining — rangli va energiyali doppler, kompression va shift to‘lqini elastografiyasi, 3D rejimda qon oqimi tahlili — integratsiyalashgan tarzda qo‘llanishi endometriy o‘zgarishlarini chuqur va kompleks baholash imkonini berishi ta’kidlanadi. O‘zbekistonda bu borada ayrim ilmiy izlanishlar mavjud bo‘lsa-da, elastografiya, dopplerometriya va vaskulyarizatsiya indekslariga asoslangan multiparametrik ultratovush tekshiruvi usuli hanuz to‘liq joriy etilmagan. Shu boisdan, dissertatsiyada taklif etilgan yangicha yondashuv O‘zbekistonda ushbu sohada amalga oshirilayotgan tadqiqotlar kontekstida o‘ziga xos ilmiy va amaliy yangilik sifatida ajralib turadi hamda yuqori ahamiyatga egadir. Ushbu yondashuv zamonaviy ultratovush texnologiyalarining salohiyatini yanada chuqurroq o‘rganish va amaliyotga joriy etish imkoniyatini yaratadi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsion tadqiqot Tibbiyot xodimlariningkasbiy malakasini rivojlantirish markazi ilmiy ishlar rejasiga kiritilgan bo‘lib, quyidagi: №000893 — “Zamonaviy ultratovush diagnostika texnologiyalarining klinik tibbiyotdagi o‘rni va ahamiyatini o‘rganish” (2010–2014-yillar) mazkur ilmiy ish loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

Tadqiqotning maqsadi — menopauzadagi ayollarda endometriyning xavfsiz va xavfli giperplastik jarayonlarini differensial diagnostika qilish aniqligini oshirish maqsadida zamonaviy multiparametrik ultratovush uslublaridan foydalangan holda diagnostik algoritm ishlab chiqish.

Tadqiqotning vazifalari:

menopauzadagi sog‘lom ayollar (nazorat guruhi) bilan solishtirib, endometriy giperplastik jarayonlari va endometriy saratonining ultratovush semeotikasini o‘rganish;

tadqiqotning uchta guruhida standart transvaginal UTT, hajmli qon oqimi, kompression elastografiya va shift to‘lqini elastografiyasining sezuvchanligi, spetsifikligi hamda diagnostik ahamiyatini aniqlash;

endometriy giperplaziyasini tashxislashda sonoelastografiya va shift to‘lqini elastometriyasining samaradorligini baholash;

menopauzadagi bachadon qon ketishlari holatlarida VOCAL rejimida o'tkazilgan skanerlash orqali hajmli qon oqimi parametrlaridagi o'zgarishlarni aniqlash;

menopauzadagi ayollarda endometriy giperplaziyasi va rakini aniqlashda multiparametrik ultratovush tekshiruvining original protokollari asosida kompleks differensial diagnostik algoritmi ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti. Tadqiqotga menopauzadagi 158 nafar ayol jalb etildi, ulardan 89 nafari endometriyning xavfli patologiyasi, 39 nafari esa endometriy giperplaziyasi bilan tashxislangan. Barcha bemorlar O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi huzuridagi Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining Toshkent viloyat filialida tekshiruvdan o'tgan va statsionar davolanish olgan. Shuningdek, nazorat guruhini 30 nafar sog'lom ayol tashkil etdi. Ultratovush tekshiruvlari 2023–2025 yillar davomida “MINDRAY RESONA I9” va “GE LOGIQ TOTUS” ultratovush apparatlari yordamida amalga oshirildi.

Tadqiqotning predmeti. Menopauzadagi ayollarda endometriy giperplastik jarayonlarini aniqlash bo'yicha klinik, laborator, gistologik tahlillar, shuningdek, multiparametrik ultratovush tekshiruvlari va nur diagnostikasi usullari (magnit-rezonans tomografiya hamda multispiral kompyuter tomografiya) natijalari tahlil qilindi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot maqsadi va vazifalariga erishish uchun ginekologik ko'rik, klinik-laborator tekshiruvlar (umumiy klinik, biokimyoviy va morfologik tahlillar), ko'krak qafasi rentgenografiyasi, magnit-rezonans tomografiya (MRT) va multispiral kompyuter tomografiya (MSKT). Multiparametrik ultratovush tekshiruvi (MP-UZI) barcha zamonaviy uslublar — B-rejim, dopplerografiya, 3D-angiografiya, kompression elastografiya va shift to'lqini elastografiyasi orqali amalga oshirildi. Shuningdek, statistik ma'lumotlar tegishli metodlar asosida qayta ishlanib, tahlil qilindi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk bor multiparametrik ultratovush tekshiruvi asosida menopauzadagi ayollarda endometriy patologiyasining exografik xususiyatlari o'rganildi va tahlil qilindi;

menopauzadagi ayollarda endometriy giperplaziyasi va endometriy saratonini farqlash uchun transvaginal ultratovush tekshiruvi, 3D-rejimda hajmli qon oqimini aniqlash, kompression elastografiya va siljituvchi to'lqini elastografiyasidan ketma-ket foydalanilgan holda differensial-diagnostik mezonlar belgilandi;

qo'llanilgan har bir ultratovush tekshiruvining aniqligi, sezuvchanligi va diagnostik ahamiyati, shuningdek, ularning kompleks qo'llanilishi samaradorligi aniqlandi;

exografik semiotikaning qiyosiy tahlili o'tkazildi va endometriy saratoniga innovatsion ultratovush tekshiruvlari asosida ekspert bahosi berildi;

menopauzadagi ayollarda endometriy patologiyasiga gumon qilingan holatlarda kichik chanoq a'zolarining ekspert multiparametrik ultratovush tekshiruvi uchun original tekshirish protokoli ishlab chiqildi.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

multiparametrik ultratovush tekshiruvi davomida olingan natijalar menopauzadagi ayollarda endometriyning xavfsiz giperplastik jarayonlari va xavfli patologiyalarini differensial diagnostika qilishni takomillashtirish uchun qo'llanilishi mumkinligi isbotlandi;

B-rejim, 3D-angiografiya, rangli va energetik doppler xaritalash, kompression va siljituvchi to'lqini elastografiyasi natijalarini birlashtirish orqali ishlab chiqilgan diagnostik algoritm, endometriy shikastlanishining morfologik turini operatsiyagacha aniqroq aniqlash imkonini berdi.

multiparametrik ultratovush asosida ishlab chiqilgan diagnostik algoritmnini klinik amaliyotga joriy etish menopauzadagi ayollarda endometriy giperplastik jarayonlarini xavfsiz va xavfli turlarini erta bosqichda differensial diagnostika qilish imkonini berdi;

bu yondashuv bemorlarni boshqarish taktikasini asosli va individual tanlashga, asossiz invaziv aralashuvlar sonini kamaytirishga, giperplastik o'zgarishlar bilan kechuvchi holatlarda dinamik noinvaziv kuzatuvni amalga oshirishga, atipik shakllarda esa xavfli o'zgarishlarni o'z vaqtida aniqlashga xizmat qildi va onkoginekologik skrining samaradorligini oshirib, bemorlar oqimini optimallashtirishga yordam berdi;

olingan ma'lumotlar postmenopauza davrida bachadondan qon ketish bilan murojaat qilgan ayollarni tekshirishda ultratovush diagnostikasi protokollariga kiritildi. Ushbu yondashuv asosida ultratovush tekshiruvlari bo'yicha o'quv dasturlari ishlab chiqilib, turli darajadagi tibbiyot muassasalarida endometriy patologiyalarini aniqlashga xizmat qiluvchi nur diagnostikasi algoritmi klinik amaliyotga joriy etildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi zamonaviy, validatsiyadan o'tgan va o'zaro to'ldiruvchi usullar — klinik, instrumental (jumladan, 3D-angiografiya, dopplerometriya, kompression va shift to'lqini elastografiyasini o'z ichiga olgan multiparametrik ultratovush tekshiruvi), laborator va morfologik diagnoz verifikatsiyasi — kompleks qo'llanilishi bilan mustahkamlangan. Ishonchlilik tanlama hajmining yetarliligi ($n = 158$), taqqoslama guruhlarining to'g'ri shakllantirilishi, statistik asoslangan tahlil usullarining (ROC-tahlil, korrelyatsion tahlil, sezuvchanlik, spetsifiklik, AUC, ishonchli interval va boshqalar) qo'llanilishi hamda natijalarning takrorlanuvchanligi bilan ta'minlangan. Bundan tashqari,

natijalarning haqiqatga yaqinligi gistologik ma'lumotlar bilan solishtirilishi va vakolatli ekspertlar tomonidan tasdiqlanishi orqali ham tasdiqlandi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Olingan natijalar ultratovush diagnostikasining zamonaviy yutuqlariga va endometriy giperplastik jarayonlarning klinik-diagnostik xususiyatlarini o'rganishga muhim hissa qo'shadi hamda endometriy patologiyasining kechishini chuqurroq tahlil qilish, raqobatbardosh tekshiruv va davolash usullarini ishlab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Ishning ayrim natijalari talabalar, magistrlar, klinik ordinatorlar hamda malaka oshirish kurslari tinglovchilari uchun o'quv dasturlarining mazmuni va tuzilmasini takomillashtirish imkonini beradi, ayniqsa multiparametrik ultratovush tekshiruvi sohasidagi yangi ma'lumotlardan foydalanish hisobiga.

Ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, unda endometriy patologiyasiga ega bemorlarni tekshirish uchun optimallashtirilgan algoritm ishlab chiqilgan bo'lib, u zamonaviy nur diagnostikasi usullarining kompleksidan foydalangan holda menopauza davridagi ayollarni davolash va kuzatish taktikasini to'g'ri tanlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi. Olingan ilmiy natijalar asosida endometriy gipertrofik jarayonlarini differensial tashxislash mezonlarini aniqlash va ilmiy tadqiqot natijalariga ko'ra:

Birinchi ilmiy yangilik: dissertatsion tadqiqot doirasida birinchi marta menopauzadagi ayollarda endometriyning turli gipertrofik jarayonlarini multiparametrik ultratovush tekshiruvi (MP UTT) yordamida kompleks tahlil qilindi. Ushbu yondashuv standart B-rejimli skanerlashni, bachadon va endometriyning morfometrik parametrlarini baholashni, to'qimalarning tuzilishi va exogenligini tahlil qilishni, shuningdek, endometriy shakli va konturlaridagi o'zgarishlarni aniqlashni o'z ichiga oldi. Maxsus e'tibor xavfsiz gipertrofik jarayonlarni xavfli transformatsiyalardan ajratib ko'rsatishga imkon beruvchi exografik markerlarni aniqlashga qaratildi. Birinchi marta endometriy gipertrofiyasi, atipik gipertrofiyasi va adenomakarsinomasida endometriyning morfologik va exostruktural xususiyatlari qanday o'zgarishi bo'yicha ma'lumotlar umumlashtirildi. Endometriy gipertrofik jarayonlarini tashxislashni yaxshilash va aniq ilmiy natijalarga erishish asosida quyidagi metodik qo'llanmalar yaratildi va tasdiqlandi: «Endometriy gipertrofik jarayonlarini differensial tashxislashda multiparametrik ultratovush tekshiruvi» (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, 2025-yil 23-apreldagi Ilmiy kengash qarori bilan tasdiqlangan, 50-son bayonnoma). Mazkur metodik qo'llanmalarda menopauzadagi ayollar uchun multiparametrik ultratovush tekshiruvi o'tkazish usullari, xavfsiz va xavfli endometriy patologiyasining exosemiotikasi, shuningdek, endometriy gipertrofik jarayonlarining xavfli markerlarini aniqlash bo'yicha ilmiy natijalar

tavsiflangan. Ushbu natijalar sogʻliqni saqlash amaliyotiga, xususan, Toshkent shahar RIOvaRIATM radiologiya boʻlimlari faoliyatiga (2025-yil 5-maydagi 90u-sonli buyruq asosida) va koʻp tarmoqli “M-clinic” tibbiyot markaziga (2025-yil 30-maydagi 22-P/2025-sonli buyruq asosida) joriy etildi (Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 20-iyundagi 20-sonli xulosasi bilan). *Ijtimoiy samaradorlik*: sunʼiy intellekt metodlariga asoslangan yangi yondashuv xavfsiz va xavfli oʻsimtalarni yanada aniqlik bilan va tez aniqlashga yordam beradi, bu esa oʻz vaqtida davolanishni boshlash va asoratlar xavfini kamaytirishga olib keladi. Natijalarning joriy etilishi endometriy gipertrofik jarayonlari va ularning asoratlarini kompleks ultratovush tekshiruvini orqali operatsiyagacha va reabilitatsiya bosqichlarida diagnostika sifatini oshirdi.

Ikkinchi ilmiy yangilik: birinchi marta Oʻzbekistonda endometriy giperplasiya jarayonlarining xavfsiz va xavfli turlarini differensial tashxislash uchun kompleks multiparametrik yondashuv qoʻllanilgan tadqiqot oʻtkazildi. Transvaginal UTT endometriyning morfologiyasini (qalinligi, tuzilishi, konturlari) baholash va bachadon shilliq qavatining atipik belgilar bilan (notekis konturlar, notekis exostruktura) qalinlashuvini aniqlash imkonini berdi, bu esa xavfli oʻzgarishlarning mumkin boʻlgan belgisi sifatida qaraladi. 3D-angiografiya VOCAL dasturi yordamida oʻtkazilib, u hajmiy qon oqimini miqdoriy baholash va vaskulyarizatsiya indekslarini (VI, FI, VFI) hisoblash imkoniyatini berdi. Kompression elastografiya endometriy toʻqimalarining qattiqligini baholashga yordam berdi: saraton holatlarida qattiqlik koeffitsienti va toʻqima qattiqligi koʻrsatkichlari qiymatlari xavfsiz jarayonlarga qaraganda sezilarli darajada yuqori boʻlgan. Siljituvtchi toʻlqini elastografiya esa Yung modulini miqdoriy baholash imkonini berdi, natijada adenomakarsinoma bilan kasallangan bemorlarda toʻqimalarning qattiqligi GPE va normal holatlarga nisbatan ancha oshganligi aniqlandi. Ushbu maʼlumotlar asosida har bir nosologiya uchun aniq differensial tashxis mezonlari ishlab chiqildi va ular quyidagi metodik tavsiyalarda aks ettirildi: «Endometriy gipertrofik jarayonlarini differensial tashxislashda multiparametrik ultratovush tekshiruvini» (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, 2025-yil 23-apreldagi Ilmiy kengash qarori bilan tasdiqlangan, 50-son bayonnoma). Mazkur metodlar Toshkent shahar RIOvaRIATM radiologiya boʻlimlari faoliyatiga (2025-yil 5-maydagi 90u-sonli buyruq asosida) hamda koʻp tarmoqli “M-clinic” tibbiyot markaziga (2025-yil 30-maydagi 22-P/2025-sonli buyruq asosida) amaliyotga joriy etildi (Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 20-iyundagi 20-sonli xulosasi bilan).

Uchinchi ilmiy yangilik: matnda birinchi marta har bir ultratovush tekshiruvining diagnostik samaradorligi alohida va multiparametrik yondashuv tarkibida batafsil tahlil qilindi. Transvaginal UTT (B-rejim) bachadon endometriysining xavfli patologiyalarini aniqlashda 78% sezgirlik va 72%

spetsifiklik ko'rsatdi, bu uning yaxshi skrining imkoniyatlariga ega ekanligini, ammo differensial tashxislashda chegaralangan aniqlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Rangli va energiyali doppler xaritalash endometriy va bachadon tomirlaridagi qon oqimi intensivligini baholash imkonini berdi. Tomir qarshilik indeksi (RI) va arteriya perfuziyasi indeksi (IAP) guruhlar o'rtasida sezilarli farqlarni ko'rsatdi. 3D angiografiya (VOCAL) dopplerometriyaga nisbatan yuqori informativlikni namoyon etdi: VI, FI va VFI endometriy saratoni bilan og'riqan bemorlarda maksimal qiymatlarga yetdi, bu esa patologik angiogenezni miqdoriy aniqlash imkonini berdi. Kompression elastografiya va SWE diagnostik aniqlikni sezilarli darajada oshirdi: SWE uchun sezgirlik 92% va spetsifiklik 89% bo'ldi (gistologik verifikatsiya asosida). Young moduli va to'qima qattiqligi ko'rsatkichlari to'qima qattiqligining muhim markerlariga aylandi va xavfsiz va xavfli jarayonlarni yuqori aniqlik bilan farqlash imkonini berdi. Ushbu ma'lumotlar metodik tavsiyalar tarkibiga kiritildi: *“Endometriy gipergiplastik jarayonlarining differensial tashxisida multiparametrik ultratovush tekshiruvi”* (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, 2025-yil 23-apreldagi Ilmiy kengash qarori bilan tasdiqlangan, 50-son bayonnoma). Ushbu metodikalar Toshkent shahar RIOvaRIATM nurli diagnostika bo'limlari amaliyotiga 2025-yil 5-maydagi 90u-sonli buyruq va “M-clinic” ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga 2025-yil 30-maydagi 22-P/2025-sonli buyruq asosida joriy etildi (Sog'liqni Saqlash Vazirligi Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 20-iyundagi 20-sonli qarori bilan).

To'rtinchi ilmiy yangilik: ushbu dissertatsion ishda birinchi marta endometriy gipergiplastik jarayonlarining differensial tashxisida multiparametrik ultratovush tekshiruvi asosida original ekspert protokoli ishlab chiqildi. Ushbu protokol B-rejimdagi standart skanerlash, rangli va energiyali dopplerometriya, 3D angiografiya (VOCAL), kompression elastografiya va srez to'lqin elastografiyasi (SWE) natijalarini integratsiya qilish imkonini beradi. Mazkur yondashuv yordamida bemorlarni guruhlash, ularning individual xavfini baholash va optimal diagnostika-taktik qarorlar qabul qilish uchun kompleks diagnostik algoritm yaratildi. Shuningdek, ushbu protokol yordamida endometriyning morfometrik ko'rsatkichlari, qon tomir tarmog'ining parametrlari va to'qima qattiqligi o'rtasidagi korrelyatsiya aniqlanib, endometriy saratoni uchun yuqori xavfli bemorlarni aniqlash imkoniyati yaratildi. Metodik tavsiyalar shaklida berilgan ushbu algoritm *“Endometriy gipergiplastik jarayonlarining differensial tashxisida multiparametrik ultratovush tekshiruvi”* nomi bilan tasdiqlandi (Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi, 2025-yil 23-apreldagi Ilmiy kengash qarori, 50-son bayonnoma). Ushbu yangicha yondashuv Toshkent shahar RIOvaRIATM nurli diagnostika bo'limlariga 2025-yil 5-maydagi 90u-sonli buyruq va “M-clinic” ko'p tarmoqli tibbiyot markaziga 2025-yil 30-maydagi 22-P/2025-sonli buyruq asosida

amaliyotga joriy etildi (Sogʻliqni Saqlash Vazirligi Ilmiy-texnik kengashining 2025-yil 20-iyundagi 20-sonli qarori bilan).

Tadqiqot natijalarining approbatsiyasi. Mazkur ilmiy tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyada muhokama qilindi.

Tadqiqot natijalarining eʼlon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi boʻyicha jami 10 ta ilmiy maqola chop etilgan, shundan 7 tasi Oʻzbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsifa etilgan xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish qismi, toʻrtta bob, xulosa, yakuniy natijalar, foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati va qisqartmalar roʻyxatidan iborat. Dissertatsiyaning matn hajmi 123 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya tadqiqotining dolzarbligi va ahamiyati asoslab berilgan, ilmiy ishning maqsadi va vazifalari belgilangan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, ishning Oʻzbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yoʻnalishlariga muvofiqligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilishi, chop etilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tuzilmasi keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobida «Menopauzadagi ayollarda endometriy patologiyasini tashxislashning zamonaviy holati (adabiyotlar sharhi)» xorijiy va mahalliy adabiyotlar asosida mavzuga oid manbalar sharhi keltirilgan, menopauzadagi ayollarda endometriyning giperplastik jarayonlarining epidemiologiyasi va klinik tashxisiga oid zamonaviy qarashlar tahlil qilingan. Endometriyning xavfsiz giperplaziyasini siqiluvchanlik (kompression) elastografiyasi va toʻlqinli elastografiya yordamida ultratovush tashxislash imkoniyatlari yoritilgan, endometriyning xavfli patologiyalarini aynan shu texnologiyalar yordamida aniqlashdagi roli koʻrib chiqilgan. Adabiyotlar sharhi asosida erishilgan yutuqlar tahlil qilingan, hal qilinmagan yoki aniqlashtirishni talab qiluvchi jihatlar koʻrsatib oʻtilgan. Bob yakunida umumlashtirilgan xulosalar keltirilgan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi «Tadqiqot materiali va usullarining umumiy tavsifi»da kuzatilgan bemorlar toʻgʻrisidagi umumiy maʼlumotlar hamda ishlatilgan ultratovush tekshiruv usullari keltirilgan. Yuqorida koʻrsatilgan vazifalarni hal qilish maqsadida 2023–2025 yillarda Respublika ixtisoslashtirilgan onkologiya va radiologiya ilmiy-amaliy tibbiyot markazining viloyat filiali sharoitida 158 nafar menopauzadagi ayollar chuqurlashtirilgan tekshiruvdan oʻtkazildi.

Barcha bemorlar 3 guruhga bo'lini:

- 89 nafar bemor endometriy saratoni tashxisi bilan (1-asosiy guruh),
- 39 nafar ayol xavfsiz giperplastik jarayonlar bilan (2-asosiy guruh),
- 30 nafar sog'lom menopauzadagi ayollar (nazorat guruhi).

Barcha ishtirokchilarga zamonaviy ultratovush apparatlari — GE LOGIQ TOTUS va MINDRAY Resona I9 yordamida kompleks multiparametrik ultratovush tekshiruvini o'tkazildi. Unda quyidagi usullar qo'llanildi:

- B-rejim (kulrang o'tkazuvchan skanerlash);
- Rangli va energiyali doppler xaritalash;
- Impulsli dopplerometriya — RI, Vmax, Tmean va arterial perfuziya indeksi (API) hisoblangan;
- 3D angiografiya — avtomatik ravishda VI, FI, VFI kabi vaskulyarizatsiya indeksleri hisoblangan;
- Kompresion va to'liqlik elastografiya — endometriy qat'iyiligini o'lchash (Yung moduli, strain-ratio, IQR/Med) orqali amalga oshirilgan.

Gistologik nazorat sifatida morfologik tadqiqot ma'lumotlari ishlatilgan: dastlabki tasdiq diagnostik qirib olishdan keyin amalga oshirildi, yakuniy tashxis esa gistorektomiyadan so'nggi patomorfologik tekshiruv asosida qo'yilgan. Tahlil doirasida o'simtaning differensiallanish darajasi (G1–G3) va FIGO/TNM bo'yicha bosqichlanishi hisobga olingan.

Ikkinchi guruh ichida quyidagi kichik guruhlar ajratildi:

- polipsiz giperplaziya,
- polip bilan giperplaziya,
- yakka holdagi endometriy poliplari.

Har bir ultratovush parametrining (yakka holda va kombinatsiyada) diagnostik samaradorligi variatsion statistika usullari yordamida baholandi. Hisob-kitoblar quyidagilarni o'z ichiga olgan: sezuvchanlik, spetsifiklik, aniqlik, musbat va manfiy natijalar uchun prognoz qiymatlari. Bu ko'rsatkichlar UTT natijalari va gistologik tekshiruv bilan solishtirilib tahlil qilindi.

Dissertatsiyaning **uchinchi bob** «Bemorlarni multiparametrik ultratovush tekshiruvining o'z natijalari» da postmenopauzadagi 158 nafar ayolga oid klinik-anamnez, morfometrik, dopplerometrik, angiografik va elastografik xususiyatlar kompleks baholandi. Bemorlar uch guruhga ajratilgan: endometriy saratoni (n = 89), endometriyning xavfsiz giperplaziyasi (n = 39) va nazorat guruhi (n = 30).

Aniqlandiki, endometriy saratoni bilan kasallangan bemorlarning o'rtacha yoshi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan yuqoriroq bo'lgan (p = 0,05), bu esa yoshi ulg'aygan sari xavfli jarayonlar rivojlanish xavfi ortishini tasdiqlaydi. Menopauza davomiyligi esa guruhlar o'rtasida sezilarli farq ko'rsatmagan.

Endometriy patologiyasi mavjud ayollar orasida eng ko'p uchraydigan shikoyatlar bu — qonli ajralmalar, pastki qorin sohasidagi og'riq va umumiy holsizlik edi.

Endometriy saratoni guruhida bu simptomlar ancha yaqqol va doimiy tusga ega bo'lgan, xavfsiz giperplaziya guruhida esa simptomlar yengil va vaqti-vaqti bilan yuzaga kelgan.

Hamroh kasalliklar tahlili shuni ko'rsatdiki, endometriy patologiyasi mavjud bemorlar orasida metabolik buzilishlar yuqori darajada tarqalgan. Arterial gipertenziya, semizlik va qandli diabet giperplastik va endometriy saratoni guruhlarida, ayniqsa xavfli jarayonlarda statistik jihatdan ishonchli ravishda ko'proq uchragan ($p < 0,01$). Ushbu ma'lumotlar metabolik sindrom bilan endometriyda giperplastik va neoplastik o'zgarishlar rivojlanish xavfi o'rtasida bog'liqlik mavjudligini ko'rsatadi.


Gistologik tahlil natijalariga ko'ra, xavfli o'simtalar ichida eng ko'p uchragan turi bu yuqori darajada differensiyalashgan adenomakarsinoma bo'lib (G1 – 48,3%), G2 va G3 toifalari esa mos ravishda 32,6% va 10,1% ni tashkil etgan (Jadval 1).

Jadval 1

O'simtaning differensiyalashish darajasi (G1–G3 gistologik differensiasiya darajalari) bo'yicha bemorlar taqsimoti

Ko'rsatkichlar	endometriy saratoni, n=89, n %	
G1 (yuqori darajada differensiyalashgan)	43	48,3 %
G2 (o'rtacha darajada differensiyalashgan)	29	32,6 %
G3 (past darajada differensiyalashgan)	9	10,1 %
AGE (atipik giperplaziya endometriya)	8	9,0 %

7,9% holatlarda atipik gipergleziya aniqlangan, 15,4% bemorlarda esa saratonga gumon qilingan holatlarda morfologik tekshiruv natijasida endometriya polipi tasdiqlangan. TNM tizimi bo'yicha saraton kasalligini bosqichlarga ajratish tahlili I bosqich ustunligini ko'rsatdi (73%), bu esa ultratovush skriningi yordamida kasallikni erta aniqlash imkoniyatlarini tasdiqlaydi (1-rasm). Biroq, ayrim holatlarda kasallik II–IV bosqichlarida aniqlangan bo'lib, bu esa hushyorlikni oshirish va murakkab diagnostikaga ehtiyoj borligini ko'rsatadi. Shunday qilib, olingan ma'lumotlar ko'p parametrli yondashuvning klinik va prognostik ahamiyatini tasdiqlaydi hamda postmenopauza davridagi ayollarda endometriya patologiyasiga gumon qilingan hollarda xavf darajasini oldindan baholash va aniq diagnostika o'tkazish imkonini beradi.



1-рasm. Endometriya saratoni bilan og‘rigan bemorlarning o‘sma jarayoni bosqichlari (TNM) bo‘yicha taqsimlanishi

Bachadon o‘lchamlari va endometriy qalinligini morfometrik baholash natijalari tadqiqot guruhlari o‘rtasida ishonchli farqlarni ko‘rsatdi. Endometriyadagi xavfsiz va xavfli o‘zgarishlarga ega bo‘lgan ayollarda bachadonning o‘lchamlari (uzunligi, qalinligi, kengligi) va hajmi nazorat guruhiga nisbatan ancha kattalashgan edi ($p < 0,01$). Eng yaqqol kattalashuv endometriya saratoni guruhi bemorlarida kuzatildi, bu esa ehtimol endometriy qalinlashuvi bilan birga o‘smaning miometriyga invaziyasini ham aks ettiradi (2-jadval).

Jadval 2


Tadqiqot guruhlaridagi bemorlarda bachadonning morfometrik xususiyatlari

Ko‘rsatkichlar	Nazorat, n=30	GPE, n=39	Endometriy saratoni, n=89	p_{1-2}	p_{1-3}	p_{2-3}
Bachadon o‘lchamlari						
Uzunligi, mm	42,2±8,4	53,4±13,8	61,7±19,5	0,0002	0,0001	0,02
Qalinligi, mm	34,1±6,7	42,5±11,2	50,0±15,5	0,0005	0,0001	0,01
Kengligi, mm	45,7±8,0	57,3±13,2	62,2±16,4	0,0001	0,0001	0,10
Hajmi, sm ³	37,2±19,7	79,4±64,8	125,2±120,3	0,001	0,0001	0,03

Izohlar: GPE – endometriyaning giperplastik jarayonlari (giperplaziya); REM – endometriy rak kasalligi; p_{1-2} – nazorat guruhi va GPE guruhi o‘rtasidagi farq; p_{1-3} – nazorat guruhi va REM guruhi o‘rtasidagi farq; p_{2-3} – GPE guruhi va REM guruhi o‘rtasidagi farq.

Endometriy qalinligi yuqori axborot beruvchi ko‘rsatkich bo‘ldi (2-rasm): xavfsiz giperplaziya aniqlangan bemorlarda u nazorat guruhiga qaraganda ishonchli

ravishda yuqori bo'lgan, endometriy saratoni bemorlarda esa eng yuqori ko'rsatkichlarga yetgan ($p < 0,0001$).



Rasm 2. TVUTT: endometriyning qalinlashuvi va uning tuzilmasining o'zgarishi o'sma patologiyasida.

Shuningdek, endometriyda aniqlangan o'choqli shakllanishlarning o'lchamlari gipoplaziya va normal holatlardagidan ancha katta ekani aniqlanganki, bu bachadon bo'shlig'idagi yirik tuzilmalar mavjud bo'lganda ularning xavfli xususiyatga ega bo'lish ehtimolini ko'rsatadi (3-jadval).

3-jadval

Tadqiqot guruhidagi bemorlarda endometriy qalinligi va o'choqli shakllanishlar o'lchamlari

Ko'rsatkichlar	Nazorat, n=30	GPE, n=39	Endometriy saratoni, n=89	p1-2	p1-3	p2-3
Endometriy qalinligi, mm	3,72±0,86	15,0±7,0	19,6±8,7	0,0001	0,0001	0,01
Endometriyda o'choqli o'zgarishlar aniqlangan:						
1-o'choq	—	15,2±7,0	33,5±16,1	—	0,0001	
2-o'choq	—	11,6±7,0	35,5±16,4	—	0,0001	
3-o'choq	—	—	35,5±14,2	—	—	

Bundan tashqari, bachadon bo'ynining morfometrik ko'rsatkichlari ham baholandi. Endometriy saratoni bilan og'rigan ayollarda bachadon bo'yni qalinligi va kengligi nazorat guruhiga nisbatan statistik jihatdan ishonchli ravishda ortgani kuzatildi. Bu holat o'simta jarayonining bachadon bo'yni kanaliga tarqalishini yoki

atrof to'qimalarning ikkilamchi o'zgarishlarda ishtirokini aks ettirishi mumkin. Shu bilan birga, GPE va endometriy saratoni guruhlarida o'rtasidagi ushbu parametrlar bo'yicha farqlar har doim ham statistik ahamiyatga ega bo'lmagan, bu esa bachadon bo'yni morfometrik belgilarining diagnostik ahamiyatini cheklaydi, agar u boshqa ultratovush va klinik ko'rsatkichlar bilan birgalikda hisobga olinmasa. Shunday qilib, bachadonning morfometrik ko'rsatkichlari, ayniqsa, organ hajmi va endometriy qalinligi, patologik jarayonning og'irlik darajasini baholashda muhim mezonlardir. Ularning multiparametrik ultratovush tekshiruv algoritmiga kiritilishi postmenopauza davridagi ayollarda endometriyning xavfsiz va xavfli holatlarini aniqlash va farqlash aniqligini oshiradi.

Dopplerometriya asosida bachadon arteriyalari va o'choq zonasidagi qon oqimi baholanishi nazorat guruhi, endometriyning xavfsiz giperplaziyasi va endometriy saratoni bo'lgan bemorlar o'rtasida gemodinamik ko'rsatkichlarda ishonchli farqlarni aniqlash imkonini berdi. Aniqlanishicha, xavfli jarayonlarda qon oqimining kuchayishi va tomir qarshiligining kamayishi kuzatiladi, bu esa faol patologik angiogenezni aks ettiradi.

Jadval 4

Tadqiqot guruhidagi bemorlarda bachadon arteriyalaridagi qon oqimining dopplerometrik ko'rsatkichlari

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=30)	Endometriy giperplaziyasi (n=39)	Endometriy saratoni (n=89)	p1-2	p1-3	p2-3
O'choq osti qon oqimi						
PS, sm/soniya	8,16±2,7	13,9±2,7	21,1±11,4	0,0002	0,01	0,002
ED, sm/soniya	4,42±1,7	7,04±2,0	10,8±7,6	0,01	0,07	0,01
IR	0,7±0,1	0,56±0,08	0,49±0,15	0,002	0,003	0,01
O'ng bachadon arteriyasi						
Vmax (PS), sm/soniya	20,8±7,3	19,9±6,2	30,2±11,2	0,58	0,0001	0,001
Vmin (ED), sm/soniya	5,47±2,44	7,18±3,4	12,1±7,9	0,02	0,0001	0,001
RI	0,77±0,11	0,65±0,1	0,58±0,15	0,0001	0,0001	0,01
Tmean, sm/soniya	6,25±2,35	9,94±4,2	16,1±7,9	0,0001	0,0001	0,001
Chap bachadon arteriyasi						

Ko'rsatkichlar	Nazorat guruhi (n=30)	Endometriy giperplaziyasi (n=39)	Endometriy saratoni (n=89)	p1-2	p1-3	p2-3
Vmax (PS), sm/soniya	20,1±5,2	21,3±4,9	31,8±12,1	0,34	0,0001	0,001
Vmin (ED), sm/soniya	5,28±2,02	7,88±3,3	13±7,2	0,0003	0,0001	0,001
RI	0,78±0,09	0,66±0,1	0,57±0,15	0,0001	0,0001	0,002
Tmean, sm/soniya	6,09±2,55	10,7±3,9	16,0±8,0	0,0001	0,0001	0,001

Endometriya saratoni bilan og'rikan ayollarda maksimal sistolik qon oqim tezligi, diastolik yakuniy tezlik hamda o'rtacha tezlik (Tmean) GPE va nazorat guruhlariga nisbatan ancha yuqori bo'lgan ($p < 0,0001$). Shu bilan birga, bachadon arteriyalarida rezistentlik indeksi (RI) o'simta o'sishida ishonchli tarzda past bo'lib, bu yuqori vaskulyarizatsiya darajasiga ega bo'lgan o'smalar uchun xos holatdir (Jadval 4). Qo'shimcha ravishda, tomirlarning anatomik xususiyatlari tahlil qilindi: bachadon arteriyalarining diametri va kesim yuzasi patologik jarayon og'irlashgan sari — ya'ni nazorat guruhidan boshlab, GPE va endometriya saratoni tomon — ishonchli tarzda ortib borgan ($p < 0,0001$). Qon oqimining hajmiy tezligi (Vvol) ham ushbu tendensiyaga mos ravishda ortgan: saraton holatlarida bu ko'rsatkich nazorat guruhiga nisbatan o'rtacha 8 barobar yuqori bo'lgan (Jadval 5). Alohida ahamiyatga ega bo'lgan ko'rsatkich — bu arterial perfuziya indeksi (API) bo'lib, u qon oqimining hajmi, tezligi va to'qima massasini inobatga olgan integral ko'rsatkichdir. Endometriyaning xavfsiz giperplaziyada mo'tadil darajada oshgan bo'lsa, endometriya saratoni holatlarida maksimal darajalarga yetgan (me'yordan 3–4 barobar yuqori). Guruhlar orasidagi barcha tafovutlar statistik jihatdan ishonchli ($p < 0,01$) bo'lib, mazkur indeksning yuqori diagnostik ahamiyatini tasdiqlaydi.


Jadval 5

